

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/27.09.2024.1.55.03 RAQAMLI ILMiy KENGASH**

---

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**Jumaniyazova Ro‘za Quvondiq qizi**

**MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA  
TURIZM INFRA TUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH  
(XORAZM VILOYATI MISOLIDA)**

**08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Urganch – 2025**

**UDK: 330.43:338.43:1 (575.1)**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in economic sciences**

**Jumaniyazova Ro'za Quvondiq qizi.** Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda turizm infratuzilmasini takomillashtirish (Xorazm viloyati misolida).....3

**Джуманиязова Роза Кувондик кизи.** Совершенствование туристической инфраструктуры в обеспечении устойчивого развития региональной экономики (на примере Хорезмской области).....29

**Jumaniyazova Roza Kuvandik kizi.** Improving tourism infrastructure for sustainable regional economic development (on the example of Khorezm region).....57

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....61

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/27.09.2024.1.55.03 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**Jumaniyazova Ro‘za Quvondiq qizi**

**MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA**  
**TURIZM INFRA TUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH**  
**(XORAZM VILOYATI MISOLIDA)**

**08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Urganch – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Iqt5516 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.urdu.uz](http://www.urdu.uz)) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich**

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Otajanov Umid Abdullaevich**

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sapayeva Nilufar Kadambayevna**

iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi DSc.03/27.09.2024.I.55.03 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalaik ilmiy kengashining 2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_:\_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 220100, Urganch shahri, Xamid Olimjon ko'chasi 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00, e-mail: [info@urdu.uz](mailto:info@urdu.uz)

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, Xamid Olimjon ko'chasi 14-uy. Tel.: (99862) 224-67-00, e-mail: [info@urdu.uz](mailto:info@urdu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**I. S. Abdullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**T. J. Raximov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., dotsent

**B. Ruzmetov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda turizm sohasi iqtisodiy o‘shishning muhim drayverlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Masalan, Ispaniya iqtisodiyoti turizm sohasining yuqori sur’atlar bilan rivojlanishi orqali sezilarli darajada yuksalgan. 2023-yilda Ispaniyada turizm sohasidan tushgan daromad 108 milliard yevroni tashkil etdi va bu mamlakat YaIMining qariyb 12,8 foizini tashkil qildi. Shu bilan birga, turizm sohasi orqali 2,5 millionga yaqin ish o‘rni yaratilgan bo‘lib, bu umumiy bandlikning 12 foizidan ortig‘ini tashkil etadi. Aynan turizm infratuzilmasiga yo‘naltirilgan strategik sarmoyalar Ispaniyaning iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Jahonda turizm infratuzilmasining rivojlanishi mamlakatlar iqtisodiyotining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, global investitsiyalar, zamonaviy ehtiyojlar, texnologik innovatsiyalar va barqaror rivojlanish tamoyillariga tayanadi. Davlatlar turizmni rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shishga erishish bilan birga, madaniy merosni asrab-avaylash va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga ham hissa qo‘shmoqda.

Yangi O‘zbekistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirish milliy iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, mazkur sohani takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 1–2 may kunlari Xorazm viloyatiga amalga oshirgan tashrifi hududning iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish, ayniqsa, turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish bo‘yicha tub burilish yasovchi tashabbuslar bilan ajralib turdi. Ushbu tashrif doirasida e’lon qilingan Prezident qarorlari va bildirilgan strategik yondashuvlar, ayniqsa, Xorazm viloyatida turizm infratuzilmasini takomillashtirish bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dolzarbligini yanada oshiradi. Shuningdek, “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi doirasida qabul qilingan 2025-2027-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi turizm sohasida ham muhim o‘zgarishlarni nazarda tutadi. Turizm infratuzilmasini moliyalashtirish va investitsion jozibadorlikni oshirish dasturi doirasida turizm infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida 400 mlrd. so‘m mablag‘ ajratilishi belgilangan<sup>1</sup>. Shuningdek, sayyohlik markazlarida xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va infratuzilmani rivojlantirishga ham katta ahamiyat qaratiladi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining turizm va infratuzilmani rivojlantirishga oid qator me’yoriy-huquqiy hujjatlarini amalga oshirishga muayyan hissa qo‘shadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi “Ichki va xalqaro turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-sonli farmoni, 2019-yil 15-avgustdagi “2019-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5781-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-dekabrda “2025-2027-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi” PQ-43-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-dekabrda “2024-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-454-son Qarori. Manba: [https://uza.uz/oz/posts/2024-2026-yillarda-ozbekiston-respublikasining-ijtimoiy-va-ishlab-chiqarish-infratuzilmasini-rivojlantirish-boyicha-qaror-qabul-qilindi\\_553849](https://uza.uz/oz/posts/2024-2026-yillarda-ozbekiston-respublikasining-ijtimoiy-va-ishlab-chiqarish-infratuzilmasini-rivojlantirish-boyicha-qaror-qabul-qilindi_553849)

jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-135-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-454-son Qarori. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar asosida belgilangan chora-tadbirlar doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar mazkur ilmiy ishning dolzarbligini yanada oshiradi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda turizm infratuzilmasini ahamiyati mavzusida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, uzoq xorijiy olimlardan Dimitrios Buhalis, Ulrike Gretzel, Marianna Sigala, Zheng Xiang, Chulmo Koo, Dragan Jovicic, Michael Hall, Carlos Costa, Noel Scott, Metin Kozak, Alastair M.Morrison, Chris Cooper, Stephen Page, Nigel Morgan, Richard Butler, Allan M.Williams, Geoffrey Wall<sup>2</sup> va boshqalar turizm infratuzilmasini innovatsion rivojlantirish bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni boyitishga katta hissa qo‘shganlar.

MDH davlatlarida iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda turizm infratuzilmasini ahamiyati bo‘yicha I.T.Balabanov, A.Y.Aleksandrova, M.B.Birjakov, M.N.Dmitriev, V.A.Kvartalnov, N.I.Kabushkin, A.M.Vetitnev, V.A.Kvartalnov, M.A.Jukova, D.S.Ushakov<sup>3</sup> va boshqalar turizm infratuzilmasini innovatsion rivojlantirish bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni boyitishga o‘z hissasini qo‘shganlar.

---

<sup>2</sup> Azizul Hassan va Anukrati Sharma Technology in tourism, Opportunities and challen GES: Springer, 2019. - 125 p., Heng Xiang, Matthias Fuchs, Ulrike Gretzel, Wolfram Höpken. Smart tourism, Foundations and developments: Springer, 2020. - 230 p., Marianna Sigala. From the traditional understanding of tourism destination to the smart tourism destination. Springer, 2015. -149 p., Clare A. Gunn, Turgut Var. Tourism Planning: Policies, Processes and Relationships. Routledge, 2002. - 268 p., Edward Inskeep. Tourism Planning: An Integrated and Sustainable Development Approach. Van Nostrand Reinhold, 1991. - 198 p., Richard Sharpley, Philip Stone. Tourism Experience: A Critical Introduction. Routledge, 2010. - 223 p., Alastair M. Morrison. Tourism Marketing: On Both Sides of the Counter. Butterworth-Heinemann, 1996. - 326 p., Alastair M. Morrison. Marketing and Managing Tourism Destinations. Routledge, 2013. - 410 p., Chris Cooper. Contemporary Tourism: An International Approach. Goodfellow Publishers, 2016. - 130 p., Stephen J. Tourism Management. Routledge, 2019. - 132 p., Nigel Morgan, Annette Pritchard, Roger Pride. Destination Branding Creating the Unique Destination Proposition. Routledge, 2011. - 264 p., Richard W. Butler. The Tourism Area Life Cycle. Channel View Publications, 2006. - 234 p., Gareth Shaw, Allan M. Williams Tourism and Tourism Spaces SAGE Publications, 2004. - 144 p., Geoffrey Wall va Alister Mathieson Tourism Change, Impacts and Opportunities Pearson Education, 2006. - 156 p.

<sup>3</sup> Балабанов И.Т. Экономика туризма. Учебное пособие. – М.: «Финансы и статистика», 2011. – 176 с., Александрова А.Ю. Международный туризм: Учебник. – М.: «Аспект Пресс», 2002. – 246 с., Биржаков М.Б. Туристские услуги, работы, товары. Учебное пособие. – М.: «Невский фонд» "Издательский дом Герда", 2003. – 246 с., Дмитриев М.Н. Экономика и предпринимательство в социально-культурном сервисе и туризме. учебник для студентов вузов. Учебник. – М.: «ЮНИТИ-ДАНА», 2006. – 258 с., Квартальнов В.А. Экономика туризма. Учебник. – М.: «Финансы и статистика», 2004. – 320 с., Кабушкин Н.И. Менеджмент туризма. Учебник. – М.: «Новое знание», 2001. – 320 с., Ветитнев А.М. Управление качеством в туризме. Монография. – М.: «КноРус», 2007. – 265 с., Квартальнов В.А. Туризм. Учебник. – М.: «Финансы и статистика», 2002. – 213 с., Жукова М.А. Экономика туризма. Учебник. – М.: «Академия», 2005. – 162 с. Ушаков Д.С. Международный туризм. Учебник. – М.: «ЮНИТИ-ДАНА», 2010. – 224 с.

O‘zbekistonda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda turizm infratuzilmasini ahamiyati bo‘yicha M.Q.Pardayev, I.S.Ochilov, B.Ruzmetov, D.T.Doschanov, I.S.Abdullayev, M.M.Po‘latov, M.S.Qosimova, U.R.Matyakubov, B.D.Ollanazarov, A.A.Eshstayev, D.T.Xudayberganov, D.Y.Bekjanov, E.S.Xodjaniyozov, Z.P.Ilxamova A.M.Maxramov, Sh.Jumaniyozova, I.Gulmuratov<sup>4</sup> va boshqa olimlar turizm infratuzilmasini takomillashtirish masalalarini batafsil o‘rganib, sohaning rivojiga hissa qo‘shganlar.

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda turizm infratuzilmasini ahamiyati masalasi bugungi kunda dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib, ushbu mavzuga bag‘ishlangan bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. Yuqorida keltirilgan olimlarning ilmiy tadqiqotlari turizm sohasining ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini, innovatsion rivojlanish xususiyatlari hamda infratuzilmani modernizatsiya qilish imkoniyatlarini tahlil qilishga yo‘naltirilgan. Biroq, ushbu ishlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog‘liq ayrim muhim jihatlar yetarlicha tahlil qilinmagan yoki chuqur o‘rganilmagan. Shu bois, bu yo‘nalishda olib boriladigan yangi tadqiqotlar turizm infratuzilmasini innovatsion rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini boyitishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya mavzusi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Xorazm viloyati iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda turizm infratuzilmasini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari** ushbu maqsadga erishish uchun quyidagilardan iborat:

turizm infratuzilmasi tushunchasi va uning mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda tutgan o‘rnini aniqlash;

mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda institusional omillarni tadqiq qilish;

iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda va turizm infratuzilmasini takomillashtirishning xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish;

iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda turizm infratuzilmasi holatini tahlil qilish;

---

<sup>4</sup> Pardayev M.Q., Ochilov I.S. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarida samaradorlikni oshirish yo‘llari. Monografiya. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2011. – 172 b., Ruzmetov B., Salayev S.K., Xudayberganov D.T., Gulmanov M.A., Djumaniyozov U.I., Atayev J.E., Saidov D.R., Tadjiyev B.U. Xorazm viloyati va Xiva shahrining turistik salohiyatini yuksaltirish strategiyasi. Monografiya. – T.: Innovatsion nashriyot matbaa uyi, 2020. – 196 b., Abdullayev I.S. Marketing. Darslik. - T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi», 2020. - 280 b., Po‘latov M.M. "O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlanishiga global trendlarning ta‘siri". // "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali, 2023-yil oktyabr, 1(10)-son, Qosimova M.S., Ergashhodjayeva Sh., Abduhalilova L.T., Muhitdinova V., Yuldashev M. Strategik marketing – T.: O‘qituvchi, 2004., Eshstayev A.A. "Turizm infratuzilmasini innovatsion rivojlantirishdagi asosiy manbalar tahlili". // "Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil" jurnali, 2024-yil iyul, 2(7)-son, Xudayberganov D.T. Tovarlar va xizmatlar bozori samaradorligini oshirishning metodologiyasini takomillashtirish. / Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim qilingan dissertatsiyasi. - Urganch: UrDU, 2023. - 59 b., Maxramov A.M. "O‘zbekiston turizm infratuzilmasini rivojlantirish istiqboli va uni mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta‘siri". // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" jurnali, 2023-yil, Gulmuratov I. "Turizm sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va unda innovatsion faollikni oshirish xususiyatlari". // "Eurasian Journal of Academic Research", 2024-yil

iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda turizm infratuzilmasini tartibga solish va iqtisodiy mexanizmlaridan foydalanishni tadbqiq qilish;

iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda turizm infratuzilmasi imkoniyatlarini anketa-so'rovi yordamida baholashni amalga oshirish;

mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda turizm infratuzilmasini shakllantirish konsepsiyasi taklif etish;

mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda turizm infratuzilmasini taraqqiy qildirish yo'nalishlari aniqlash;

mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda turizm infratuzilmasini taraqqiy qildirishning ekonometrik modellari va prognozlashtirish istiqbollari ishlab chiqish.

**Tadqiqot obyekti sifatida** Xorazm viloyatidagi turizm infratuzilmasi tizimi va unga xizmat ko'rsatuvchi xo'jalik subyektlari tanlangan.

**Tadqiqot predmeti** Xorazm viloyatida mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda turizm infratuzilmasini takomillashtirish bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tarixiy-tahliliy usul, ekstrapolyatsiya, statistik tahlil, komparativ (taqqoslama) tahlil, korrelyatsion va regressiya tahlil, ARIMA (Autoregressive Integrated Moving Average), ekspert baholash va anketa-so'rovi usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangligi quyidagilardan iborat:**

mintaqalar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda turizm infratuzilmasini rivojlantirish darajasini baholash mezonlari sifatida investitsiyalar hajmi, mehmonxona sektori sig'imi, turistik firmalar soni, xizmatlar sohasi ulushi va sayyohlar oqimi dinamikasi kabi ko'rsatkichlarni yuqori (0,8–1), o'rta (0,5–0,7) va quyi (0,2–0,4) kategoriyalar bo'yicha kompleks tahlil qilish taklifi asoslangan.

mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda turizm infratuzilmasini va axborot ta'minotini takomillashtirishda mintaqada turistik sayyohlar oqimini ko'payishi natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy yo'nalishlarni tartibga solish va diversifikatsiyalash strategiyalarini ishlab chiqishning "overturizm" mexanizmi asoslangan.

mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda turizm infratuzilmasini rivojlantirishning dinamik optimallasuvi, investitsiya oqimlari, turistik talabning o'zgarishi, infratuzilma ob'ektlarining eskirishi va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish jarayonlarini kompleks tahlili bo'yicha ko'p bosqichli algoritmik modeli taklif etilgan.

mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda turizm infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy ko'rsatkichlarining 2030-yilgacha bo'lgan prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda turizm infratuzilmasini rivojlantirish darajasini baholash mezonlari ishlab chiqilib, hududlarning rivojlanish darajasi Xiva va Urganch shaharlari hamda Bog'ot va Xiva tumanlari "yuqori (0,8–1)", Shovot, Hazorasp, Qo'shko'pir, Urganch va Tuproqqal'a tumanlari "o'rta (0,5–0,7)", Gurlan, Yangiariq va Yangibozor tumanlari esa "quyi (0,2–0,4)" darajalarda ixtisoslashtirish imkonini bergan;

mintaqada "overturizm" mexanizmi asosida turistik oqimni tartibga solish,

iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish va diversifikatsiyalash strategiyalari ishlab chiqilib, iqtisodiy samaradorligi o'rtacha 20-25% oshirish imkoniyati aniqlangan;

mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda turizm infratuzilmasining dinamik optimallashtirish modeli ishlab chiqilib, mintaqada turistik firmalar soni 1,4 barobarga, mehmonxona sektori faoliyati 1,3 barobarga oshirish imkoniyatlari ilmiy asoslangan;

mintaqada 2025-2030-yillar oralig'ida turizm infratuzilmasining rivojlanish prognozi ishlab chiqilib, iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish ko'rsatkichlarini 1,3 baravarga oshirish mumkinligi aniqlangan va kelajakda turizm sohasida qo'shimcha 100 nafar yangi ish o'rinlarini yaratish istiqbollari asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dissertatsiya ishida qo'llanilgan metodologik yondashuvlarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalar orqali, jumladan, Xorazm viloyati hokimligi va viloyat turizm boshqarmasi ma'lumotlari va internet manbalari, davriy hisobotlaridan olinganligi hamda tegishli xulosa va takliflarni amaliyotda sinovdan o'tkazilganligi, olingan natijalarni vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mintaqada turizm infratuzilmasining rivojlanishini baholash va prognoz qilishga qaratilgan ekonometrik modellarni ishlab chiqish orqali ilmiy jamoatchilikka yangi ma'lumotlarni taqdim etish, turistik determinizm tushunchasining nazariy asoslari boyitish, ARIMA modeli yordamida turizm infratuzilmasining uzoq muddatli rivojlanish prognozini ishlab chiqish, innovatsion texnologiyalar va investitsiyalarning turizm infratuzilmasiga ta'siri yuzasidan raqamli yechimlar bo'yicha tavsiyalarni shakllantirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa turizm sohasida bandlikni oshirish, investitsion loyihalarni rejalashtirish va davlat siyosatini takomillashtirishga ilmiy asos yaratishda, shuningdek, oliy o'quv yurtlarida "Turizm iqtisodiyoti", "Innovatsion menejment", "Ekonometrika va statistika", "Turizm: nazariya va amaliyot", "Raqamli iqtisodiyot" va "Innovatsion iqtisodiyot" fanlardan o'quv dasturi tayyorlashda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Xorazm viloyati mintaqasini barqaror iqtisodiy rivojlantirish jarayonida turizm infratuzilmasini takomillashtirish borasida ishlab chiqilgan takliflar asosida:

mintaqalar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda turizm infratuzilmasini rivojlantirish darajasini baholash mezonlari sifatida investitsiyalar hajmi, mehmonxona sektori sig'imi, turistik firmalar soni, xizmatlar sohasi ulushi va sayyohlar oqimi dinamikasi kabi ko'rsatkichlarni yuqori (0,8–1), o'rta (0,5–0,7) va quyi (0,2–0,4) kategoriyalar bo'yicha kompleks tahlil qilish taklifi asoslangan (Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 4-iyuldagi 7-2606-son ma'lumotnomasi). Natijada, viloyat hududlari barqaror rivojlanish darajasiga ko'ra tabaqalashtirilib, Xiva va Urganch shaharlari hamda Bog'ot va Xiva tumanlari "yuqori (0,8–1)", Shovot, Hazorasp, Qo'shko'pir, Urganch va Tuproqqal'a tumanlari "o'rta (0,5–0,7)", Gurlan, Yangiariq va Yangibozor tumanlari esa "quyi (0,2–0,4)" darajalarda ixtisoslashtirish imkonini bergan.

mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda turizm infratuzilmasini va axborot ta'minotini takomillashtirishda mintaqada turistik sayyohlar oqimini ko'payishi natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy yo'nalishlarni tartibga solish va diversifikatsiyalash strategiyalarini ishlab chiqishning "overturizm" mexanizmi

asoslangan(Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 4-iyuldagi 7-2606-son ma'lumotnomasi). Natijada, mintaqada barqaror turizm konsepsiyasi shakllantirilib, "overturizm"ni tizimli boshqarish orqali turizmning iqtisodiy samaradorligini o'rtacha 20–25 foizga oshirishga erishilgan.

mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda turizm infratuzilmasini rivojlantirishning dinamik optimallasuvi, investitsiya oqimlari, turistik talabning o'zgarishi, infratuzilma ob'ektlarining eskirishi va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish jarayonlarini kompleks tahlili bo'yicha ko'p bosqichli algoritmik modeli taklif etilgan(Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 4-iyuldagi 7-2606-son ma'lumotnomasi). Natijada, Xorazm viloyatida turistik firmalar sonini 1,4 barobarga, mehmonxona sektori faoliyatini esa 1,3 barobarga oshirish orqali turizm infratuzilmasining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi iqtisodiy va innovatsion jozibador strategiya ishlab chiqishga erishildi.

mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda turizm infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy ko'rsatkichlarining 2030-yilgacha bo'lgan prognoz qiymatlari ishlab chiqilgan(Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 4-iyuldagi 7-2606-son ma'lumotnomasi). Natijada, 2030-yilga kelib, mintaqada turizm infratuzilmasini barqaror rivojlantirish ko'rsatkichlarini 1,3 baravarga oshirish mumkinligi aniqlangan va kelajakda turizm sohasida qo'shimcha 100 nafar yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda, hamda 8 ta tezislar chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalar qismlaridan iborat. Dissertatsiya hajmi 115 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obyekt va predmeti belgilangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatib o'tilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari asoslangan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi keltirib o'tilgan.

*"Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda turizm infratuzilmasini tadqiq qilishning nazariy-uslubiy asoslari"* deb nomlangan birinchi bobda turizm infratuzilmasi tushunchasi va uning mintaqqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda tutgan o'rni, iqtisodiyotni barqaror rivojlanishda institutsional omillar va turizm infratuzilmasini rivojlantirishning xorijiy mamlakatlar tajribasi o'rganilgan.

Turizm industriyasi mavjud sanoat korxonalariga doimiy turistik sayohatlarni tashkil etishga asoslanadi. Asosan, ushbu korxonalar sanoat hududlarida to'plangan va

sayyohlar uchun ma'lum bir infratuzilma mavjud<sup>5</sup>. Turizm mahalliy turistik resurslardan foydalanishga asoslanadi va buning evaziga korxonalar yoki davlat daromad oladilar. Turizm infratuzilmasi turizm industriyasi tarkibida shakllanadi<sup>6</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi PQ-20-son qaroriga binoan O'zbekiston Respublikasida to'siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida qarori tasdiqlandi<sup>7</sup>.

Hozirgi davrda turizm global miqyosda iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Avvalo, turizm infratuzilmasi mintaqa iqtisodiyotining tarkibiy qismlarini faol harakatga keltiradi. Bu boradagi eng asosiy yo'nalishlar – qurilish, transport, savdo, oziq-ovqat sanoati, xizmat ko'rsatish sohalari hisoblanadi. Ushbu sohalarning rivojlanishi bevosita va bilvosita tarzda yangi ish o'rinlari yaratadi. Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, 10 ta yangi ish o'rnidan kamida 1 tasi turizm sohasi bilan bog'liqdir<sup>8</sup>. Turizm sohasi O'zbekiston iqtisodiyotida nafaqat yalpi ichki mahsulot (YAIM)ning o'sishiga, balki yangi ish o'rinlarini yaratish orqali bandlik darajasining oshishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. So'nggi yillarda turizm sohasining bandlikdagi ulushi izchil ravishda o'sib bormoqda. 2023-yil yakunlariga ko'ra, turizm sohasi O'zbekiston umumiy bandlik darajasining 3,1 foizini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich yildan-yilga o'sib borayotganini inobatga olsak, 2030-yilga borib ushbu ko'rsatkich 4,5–5 foiz atrofida bo'lishi prognoz qilinmoqda.

Turizm infratuzilmasi – bu turizmni rivojlantirish va sayyohlarga xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan moddiy va nomoddiy elementlar majmuasidir. U sayyohlarning ehtiyojlarini qondirishga, ularning sayohatini qulay, xavfsiz va qiziqarli qilishga qaratilgan soha hisoblanadi.

**1-jadval.**

**Turizm infratuzilmasi va uning tarkibiy qismlari<sup>9</sup>.**

<b>T/r</b>	<b>Infratuzilma bo'limlari</b>	<b>Tarkibiy qismi</b>	<b>Jahon standartlari bo'yicha ulushi (%)</b>	<b>O'zbekistonda rivojlanish darajasi (%)</b>
<b>1.</b>	<i>- transport infratuzilmasi</i>	aeroportlar, temir yo'l yo'lovchi stansiyalari, avtobus terminallari, magistral va mahalliy yo'llar, muhim strategik ahamiyatga ega ko'prik va tunnellar, shuningdek, avtobuslar, temir yo'l harakat tarkiblari, havo kemalari, shaxsiy va jamoaviy foydalanishdagi avtomobillar, yuk va yo'lovchi tashish imkoniyatini ta'minlovchi portlar kiradi.	20–25%	18–20%
<b>2.</b>	<i>- mehmonxona infratuzilmasi</i>	mehmonxonalar, mehmon uylari, kempinglar, sanatoriyalar, dam olish	15–20%	10–12%

<sup>5</sup> Чудновский А.Д. Туризм и компьютерные системы бронирования: учеб. пособ. / А.Д.Чудновский. – М.: Ассоциация авторов и издателей «Тандем», 2007. – 400 с.

<sup>6</sup> [O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRATUZILMASI VA UNING TASNIFI – тема научной статьи по экономике и бизнесу читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка](#)

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida to'siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-20-son Qarori. Manba: <https://lex.uz/uz/docs/-6759699>

<sup>8</sup> UNWTO World Tourism Barometer. Madrid: World Tourism Organization. (2023).

<sup>9</sup> Muallif ishlanmasi

		zonalari, ovqatlanish joylari (restoranlar, kafelar, barlar va boshqalar).		
3.	- <i>kommunal infratuzilma</i>	suv ta'minoti, kanalizatsiya, elektr ta'minoti, aloqa vositalari (telefon, internet), gaz ta'minoti, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.	10–15%	8–10%
4.	- <i>ijtimoiy infratuzilma</i>	tibbiyot muassasalari, politsiya bo'limlari, yong'in xavfsizligi xizmatlari, banklar, valyuta ayirboshlash punktlari, pochta aloqasi.	8–10%	6–8%
5.	- <i>ko'ngilochar infratuzilma</i>	muzeylar, teatrlar, kinoteatrlar, konsert zallari, ko'rgazma markazlari, istirohat bog'lari, sport maydonchalari, tungi klublar, diskotekalar, savdo markazlari, suvenir do'konlari.	10–15%	5–7%
6.	- <i>axborot infratuzilmasi</i>	sayyohlik axborot markazlari, yo'l ko'rsatkichlari, xaritalar, bukletlar, veb-saytlar, mobil ilovalar.	5–7%	3–5%
7.	- <i>ekologik infratuzilma</i>	milliy bog'lar, qo'riqxonalar, tabiat yodgorliklari, ekologik yo'llar, tozalash inshootlari, chiqindilarni qayta ishlash korxonalari.	5–8%	4–5%
8.	- <i>madaniy infratuzilma</i>	tarixiy obidalar, me'moriy yodgorliklar, diniy ob'ektlar, hunarmandchilik markazlari, folklor guruhlari.	10–12%	10–11%

Turizm infratuzilmasi turistlar ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan moddiy-texnik baza hisoblanadi. Uning asosiy bo'limlari – transport, mehmonxona, kommunal, ijtimoiy, ko'ngilochar, axborot, ekologik va madaniy infratuzilmalardan iborat. Transport infratuzilmasi (aeroportlar, vokzallar, yo'llar va transport vositalari) turistlarning harakatlanish imkoniyatlarini ta'minlaydi va ularning sayohatni tanlashiga kuchli ta'sir ko'rsatadi<sup>10</sup>. Mehmonxona infratuzilmasi esa yashash va ovqatlanish ehtiyojlarini qamrab olib, xizmat ko'rsatish sifati va narx siyosati orqali mintaqaga keluvchi turistlar soniga bevosita ta'sir qiladi<sup>11</sup>.

Turizm infratuzilmasi mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. U iqtisodiy o'sishga, ijtimoiy sohani yaxshilashga, ekologik barqarorlikni ta'minlashga va mintaqaning imidjini yaxshilashga yordam beradi. Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish uchun turizm infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Bu, ayniqsa, O'zbekiston kabi turizm salohiyati yuqori bo'lgan mamlakatlar uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Shuningdek, turizm infratuzilmasining mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish quyidagicha o'rin tutadi:

<sup>10</sup> UNWTO (2019). Transport for Tourism: Infrastructure and Investment. <https://www.unwto.org>

<sup>11</sup> WTTC (2023). Economic Impact Reports. <https://wtcc.org/Research/Economic-Impact>

## Turizm infratuzilmasining mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishdagi o‘rni

- iqtisodiy o‘rinishga hissa qo‘shadi;
- turizm infratuzilmasini yaratish va rivojlantirish yangi ish o‘rinlarini yaratadi.
- mahalliy korxonalar (mehmonxonalar, restoranlar, transport kompaniyalari, suvenir do‘konlari va boshqalar) daromadlarini oshiradi.
- budjetga soliq tushumlarini ko‘paytiradi.
- investitsiyalarni jalb qilishga yordam beradi.
- yangi sanoatlarning rivojlanishiga turtki beradi (masalan, hunarmandchilik, qishloq xo‘jaligi).
- ijtimoiy sohani yaxshilaydi:
- aholining turmush darajasini oshiradi.
- ijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilaydi (masalan, sog‘liqni saqlash, ta‘lim).
- madaniyat va san‘atni rivojlantiradi.
- aholining dam olishi va ko‘ngil ochishi uchun imkoniyatlarni kengaytiradi.
- ekologik barqarorlikni ta‘minlaydi:
- ekologik turizmni rivojlantirish tabiatni muhofaza qilishga yordam beradi.
- ekologik infratuzilma (tozalash inshootlari, chiqindilarni qayta ishlash korxonalari) atrof-muhitni ifloslanishdan himoya qiladi.
- aholining ekologik ongini oshiradi.
- mintaqaning imidjini yaxshilaydi:
- turizm mintaqani dunyoga tanitadi.
- mintaqaning madaniyati va tarixini targ‘ib qiladi.
- mintaqaning investitsiyaviy jozibadorligini oshiradi.
- qishloq hududlarini rivojlantiradi:
- turizm qishloq hududlarida yangi ish o‘rinlarini yaratadi.
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish imkoniyatlarini kengaytiradi.
- qishloq infratuzilmasini yaxshilashga yordam beradi.

### **1-rasm. Turizm infratuzilmasining mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishi orqali erishiladigan natijalari.<sup>12</sup>**

Turizm infratuzilmasining iqtisodiyotga ta‘sirini tahlil qilishda ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Jumladan, turistik oqim hajmi, xorijiy va ichki turistlar tomonidan sarflangan mablag‘lar, mehmonxona va boshqa turar joylar bandligi, yangi ob‘ektlar qurilishi, infratuzilmaga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi kabilar bu boradagi asosiy indikatorlardir<sup>13</sup>. Masalan, transport infratuzilmasi (yo‘llar, aeroportlar, temir yo‘l stansiyalari).

<sup>12</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>13</sup> Sharpley, R. *Tourism Development and the Environment: Beyond Sustainability*. Earthscan. (2009).

Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda quyidagi institutsional omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

- institutsional omillar iqtisodiy o‘shishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.
- investitsiya muhitini yaxshilashga, raqobatni rag‘batlantirishga, korrupsiyani kamaytirishga va inson kapitalini rivojlantirishga yordam beradi.
- institutsional islohotlar mintaqa iqtisodiyotining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

## 2-rasm. Institutsional omillarning mintaqa iqtisodiyoti barqarorligidagi roli<sup>14</sup>.

Ushbu 2-rasmda institutsional omillarning mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishdagi ahamiyati bayon etilgan. Unda institutsional omillar iqtisodiy o‘shishning asosi sifatida e’tirof etiladi, shuningdek, ular investitsiya muhitini yaxshilash, raqobatni rivojlantirish, korrupsiyani kamaytirish va inson kapitalini oshirish orqali mintaqaning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini ta’minlashga xizmat qilishi ta’kidlanadi. Mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga ta’sir etuvchi institutsional omillar – bu mintaqada iqtisodiy faoliyatni tashkil etish va tartibga solish qoidalari, normalari, an’analari va tashkilotlari majmuidir. Ushbu omillar iqtisodiy o‘shish sur’atlariga, investitsiya muhitiga, raqobat darajasiga, korrupsiya darajasiga va aholining turmush darajasiga bevosita ta’sir qiladi.

## 2-jadval.

### Mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga ta’sir etuvchi institutsional omillar<sup>15</sup>.

T/r	Turlari	Ta’sir doirasi
1.	- qonun ustuvorligi va huquqiy tizimning samaradorligi	Investorlar va tadbirkorlar uchun ishonchli va prognoz qilinadigan muhitni yaratadi. Huquqlar himoyasi, shartnoma majburiyatlarining bajarilishi, mulk huquqining kafolatlanishi iqtisodiy faollikni rag‘batlantiradi.
2.	-davlat boshqaruvining sifati va samaradorligi	Davlat organlarining shaffofligi, hisobdorligi va samaradorligi korrupsiya darajasini pasaytiradi, biznes uchun byurokratik to’siqlarni kamaytiradi va iqtisodiy rivojlanish uchun qulay sharoit yaratadi.
3.	- raqobat muhiti	Sog‘lom raqobat narxlarning pasayishiga, mahsulot va xizmatlar sifatining oshishiga, innovatsiyalarning rivojlanishiga va iqtisodiy samaradorlikning o‘shishiga olib keladi.
4.	- korrupsiya darajasi	Korrupsiya iqtisodiy o‘shishni sekinlashtiradi, investitsiyalarni qo‘rqitadi, resurslarning noto‘g‘ri taqsimlanishiga olib keladi va aholining davlatga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi.
5.	- inson kapitalining rivojlanishi	Sifatli ta’lim, malakali ishchi kuchi, innovatsion fikrlash qobiliyati mintaqaning raqobatbardoshligini oshiradi va iqtisodiy o‘shishni ta’minlaydi.
6.	- infratuzilmaning	Transport, energetika, aloqa va axborot texnologiyalari

<sup>14</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>15</sup> Muallif ishlanmasi

rivojlanganligi	infratuzilmasi iqtisodiy faollikni rag‘batlantiradi, bozorlarga kirishni osonlashtiradi va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi.
7. mahalliy boshqaruvning samaradorligi	Mahalliy hokimiyat organlarining iqtisodiy rivojlanish siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishdagi roli muhim. Mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda tezkor qarorlar qabul qilish, biznesni qo‘llab-quvvatlash va infratuzilmani rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shishga hissa qo‘shish mumkin.

Dunyo mamlakatlari iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va turizm infratuzilmasini takomillashtirish borasida turlicha yo‘llarni bosib o‘tganlar. Ularning tajribasi, muvaffaqiyatli va omadsiz tomonlarini o‘rganish, O‘zbekiston uchun foydali darslarni olishga imkon beradi.

“Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda turizm infratuzilmasini tadqiq qilishning o‘ziga xos xususiyatlari” deb nomlangan ikkinchi bobda iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda turizm infratuzilmasini rivojlanishi holati tahlili, tartibga solish va iqtisodiy mexanizmlari hamda turizm infratuzilmasini innovatsion rivojlanishini anketa-so‘rovi yordamida baholash tadqiq etilgan.

### 3-jadval.

#### 2024- yilda O‘zbekistonga kelgan xorijiy sayyohlar sonining viloyatlar kesimidagi dinamikasi


T/r	Viloyat / Hudud	Ulush (%)	Sayyohlar soni (ming)
1.	Toshkent shahri	11–12%	900 – 1 000
2.	Toshkent viloyati	10%	820
3.	Samarqand viloyati	15%	1 230
4.	Buxoro viloyati	9%	740
5.	Xorazm viloyati	6%	490
6.	Qashqadaryo viloyati	4%	330
7.	Surxondaryo viloyati	3%	250
8.	Farg‘ona viloyati	4%	330
9.	Namangan viloyati	3%	250
10.	Andijon viloyati	2.5%	210
11.	Navoiy viloyati	2%	165
12.	Jizzax viloyati	1.5%	125
13.	Sirdaryo viloyati	1%	80
14	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	4%	330
	Jami	100%	8 200

Ushbu 3-jadvaldan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, Toshkent shahri, Samarqand va Buxoro eng ko‘p turist qabul qilgan hududlar bo‘lib qolmoqda. Xorazm, Qoraqalpog‘iston, Farg‘ona vodiysi viloyatlari o‘sib borayotgan turizm salohiyatiga ega.

So‘nggi yillarda innovatsion o‘zgarishlar sohada olinadigan natijalarini yaxshilashga o‘z hissasini qo‘shmoqda. Xususan, turistik faoliyatni samarali tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish turistik hududlarning to‘lovlar tushumini oshirishga imkon beradi.

Mamlakatimizda turizm infratuzilmasining rivojlanishi mintaqalarning iqtisodiy salohiyatini kuchaytirish, madaniy merosni saqlash va mahalliy aholi turmush darajasini oshirishda katta rol o‘ynaydi. Mintaqalarda turizm infratuzilmasini innovatsion rivojlantirish o‘ziga xos xususiyatlarga ega hisoblanadi. Bu borada mamlakatimizda

turizm infratuzilmasini rivojlanishi holatining tahlili amalga oshirildi va innovatsion jihatlari tadqiq qilindi. Avvalo, 2019-2025-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasiga kelgan xorijiy fuqarolar soni tahlil qilindi (3-rasm).



**3-rasm. 2019-2023-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasiga kelgan xorijiy fuqarolar soni<sup>16</sup>**

Ushbu rasm ma’lumotlaridan kelib chiqib, 2020-yil turistlar oqimi -77.3 % kamaygan, 2021-yilda +25.1 % oshgan, 2022-yilda +178.1 % oshgan, 2023-yilda esa +26.6 %, oshgan 2024-yilda +23.4% oshgan, 2025-yilning yanvar-fevral oylarida tashrif buyurgan turistlar soni shu davrda o‘tgan yil kelgan turistlar soniga nisbatan +37% ko‘tarilganini ko‘rsatilgan. 2025-yilning yanvar-fevral oylarida O‘zbekiston Respublikasiga kelgan xorijiy fuqarolar soni jami 1.3 mln nafarni tashkil etgan.

Xorazm viloyati turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun integratsiyalashgan yondashuv zarur. Tashkiliy va innovatsion mexanizmlarni uyg‘unlashtirib, turizm sohasi xalqaro standartlarga mos ravishda rivojlantirilishi mumkin. Shu bilan birga, mahalliy aholi ishtirokini ta’minlash va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali mintaqaning turizm salohiyati yanada yuksaladi. Mintaqada turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uni amalga oshirishda tashkiliy mexanizmlarni shakllantirish yuzasidan turli tahlillar olib borilgan.

Shunga asosan, Xorazm viloyatida turizm infratuzilmasini iqtisodiy barqaror rivojlantirishning bosqichma-bosqich algoritmik modeli quyidagi bosqichlarga ega bo‘ladi

<sup>16</sup> Muallif ishlanmasi

**1-bosqich. Maqsad va vazifalarni aniqlash bosqichi<sup>17</sup>**

<i>Maqsad va vazifalarni aniqlash</i>	
Iqtisodiy rivojlantirish maqsadlari	. Innovatsion rivojlantirish maqsadlari
Turizm infratuzilmasiga yo'naltiriladigan investitsiyalarni jalb qilish. Xorazm viloyatining transport, mehmonxona va ko'ngilochar infratuzilmasini rivojlantirish. Mahalliy iqtisodiyotga turizmning ulushini oshirish.	Turizm xizmatlariga innovatsion yechimlar joriy etish. Zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda turistlar uchun qulay muhit yaratish. "Yashil" turizm va ekologik innovatsiyalarni tatbiq etish.
<i>Asosiy vazifalar:</i>	
Turizm infratuzilmasining amaldagi holatini har tomonlama o'rganish va diagnostik tahlil asosida muammoli jihatlarini aniqlash. Hududda investitsiyalarni jalb etish bo'yicha strategik yondashuvlarni ishlab chiqish va ularni bosqichma-bosqich amalga oshirish. Sayyohlar oqimini ko'paytirishga qaratilgan iqtisodiy mexanizmlar va chora-tadbirlar majmuasini shakllantirish.	Raqamli infratuzilma imkoniyatlarini baholash va turizm sohasida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish yo'nalishlarini aniqlash. Innovatsion turistik mahsulotlar va xizmatlarni yaratish uchun tizimli strategik dasturlarni ishlab chiqish. Mahalliy hamda xalqaro darajadagi strategik sheriklarni jalb etish orqali innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq etishni faollashtirish.

5 bosqichli model orqali Xorazm viloyatida turizm infratuzilmasining rivojlanishi tizimli va samarali tarzda amalga oshirilishi mumkin. Xorazm viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish ko'p bosqichli algoritm asosida amalga oshirilsa, iqtisodiy samaradorlik oshadi va hudud global turizm bozorida yuqori mavqega ega bo'ladi.

Mintaqalarda turizm infratuzilmasini innovatsion rivojlantirish ko'rsatkichlarini yuqori (0,8-1), o'rta (0,5-0,7) va quyi (0,2-0,4) darajalarda iqtisodiy baholash metodikalari taklif etildi. Mintaqalarda turizm infratuzilmasini innovatsion rivojlantirish darajalarini iqtisodiy baholash uchun quyidagi metodikalar va ko'rsatkichlar asosida yondashish taklif etiladi (3-4-5-jadval):

1. Yuqori darajada innovatsion rivojlangan mintaqalar:

5-jadval

**Turizm infratuzilmasi yuqori darajada rivojlangan mintaqalarda baholash ko'rsatkichlari<sup>18</sup>**

T/r	Baholash ko'rsatkichlari:	
1.	Turizm texnologiyalari integratsiyasi	Elektron xizmatlar, raqamli turizm platformalari, IoT (Internet of Things) texnologiyalari darajasi 0.4
2.	Xalqaro standartlarga mos infratuzilma	Mehmonxona, transport, va turistik xizmatlarning xalqaro sertifikatlariga ega bo'lishi 0.3
3.	Investitsiya faolligi	Innovatsion loyihalarga jalb etilgan xususiy va davlat investitsiyalari hajmi 0.2
4.	Raqobatbardoshlik indeksi	Jahon iqtisodiy forumi (WEF) ma'lumotlariga asoslangan turizm sohasidagi raqobatbardoshlik reytingi 0.1

Ushbu 2-jadvalga asosan baholash mezonlari innovatsion rivojlanish darajasini

<sup>17</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>18</sup> Muallif ishlanmasi

aniq va tahliliy baholash, turizm sektoridagi kuchli va zaif tomonlarni aniqlash, hamda kelajak strategiyasini shakllantirish uchun ishlatiladi. Ushbu yondashuv orqali Xorazm viloyati turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish mumkin.

2. O'rta darajada innovatsion rivojlanish davom etayotgan mintaqalar:

**6-jadval**

**Turizm infratuzilmasi o'sib borayotgan va innovatsion texnologiyalar qisman joriy etilgan hududlarni baholash ko'rsatkichlari<sup>19</sup>**

T/r	Baholash ko'rsatkichlari		
1.	Qisman avtomatlashtirilgan xizmatlar	Onlayn bronlash tizimlari va qisman raqamlashtirilgan xizmatlarning mavjudligi	0.4
2.	Turistik oqim hajmi	Mintaqaga kelayotgan ichki va tashqi turistlar sonining dinamikasi	0.3
3.	Tashqi investitsiya ulushi	Davlat va xususiy sektorning innovatsion infratuzilmani rivojlantirishdagi hisssasi	0.2
4.	Servis sifati	Mehmonxona va restoranlarning xizmat ko'rsatish darajasi bo'yicha iste'molchi fikrlari	0.1

Ushbu 3-jadvalga asosan baholash mezonlari mintaqadagi turizm infratuzilmasining innovatsion rivojlanish darajasini tahlil qilish, turizm sohasining o'sish tendensiyalarini aniqlash hamda strategik rejalashtirish uchun ilmiy asos yaratish maqsadida qo'llaniladi. Ushbu ko'rsatkichlar asosida turizmni rivojlantirish bo'yicha takliflar shakllantirilishi mumkin.

3. Quyi darajada innovatsion rivojlanishning boshlang'ich bosqichi:

**7-jadval**

**Turizm infratuzilmasi rivojlanmagan hududlarni baholash ko'rsatkichlari<sup>20</sup>**

T/r	Baholash ko'rsatkichlari		
1.	Asosiy infratuzilma mavjudligi	Minimal transport va joylashtirish sharoitlari (mehmonxonalar, yo'llar va boshqalar)	0.4
2.	Mahalliy resurslardan foydalanish	Mavjud tabiiy va madaniy resurslarning turizm maqsadida ishlatilish darajasi	0.3
3.	Innovatsion elementlar yetishmovchiligi	Raqamlashtirilgan xizmatlarning yo'qligi yoki juda kamligi	0.3

Ushbu 4-jadval orqali mezonlar turizm infratuzilmasining boshlang'ich rivojlanish darajasini baholash, mavjud muammolarni aniqlash va turizmni yanada rivojlantirish bo'yicha strategik qarorlar qabul qilish uchun qo'llaniladi. Baholash natijalari asosida infratuzilmani yaxshilash, resurslarni samarali ishlatish va innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilishi mumkin.

Umumiy iqtisodiy baholash metodikasi quyidagilardan iborat:

1. **Indeksli baholash usuli:** Har bir darajaga tegishli ko'rsatkichlar asosida indeks yaratilib, 0 dan 1 gacha bo'lgan oraliqda baholanadi (6-jadval).

<sup>19</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>20</sup> Muallif ishlanmasi

Indeksli baholash usuli jadvali<sup>21</sup>

T/r	Indeksli baholash usuli	
1.	0.8-1	Yuqori daraja
2.	0.7-0.5	O'rta daraja
3.	0.4-0.2	Quyi daraja

2. *Ekspert bahosi usuli*: Mintaqaviy ekspertlar tomonidan berilgan baholar asosida o'rtacha ko'rsatkich aniqlanadi.

3. *Vaznli baholash usuli*: Turli ko'rsatkichlarga o'z ahamiyatiga qarab vazn belgilash va umumiy ko'rsatkichni hisoblash.

Ushbu metodika yordamida turizm infratuzilmasini innovatsion rivojlantirishni strategik rejalashtirish va moliyalashtirish uchun aniq ko'rsatkichlar va yo'nalishlar belgilanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan holda barqaror rivojlanish yo'lidan bormoqda. Bunda iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri sifatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish va ushbu sohada zamonaviy iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish alohida o'rin tutadi. Turizm nafaqat yalpi ichki mahsulotni (YaIM) oshiradi, balki mintaqaviy bandlik, valyuta tushumlari va sarmoyaviy faollikni ta'minlashda ham muhim sektor hisoblanadi.

Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda iqtisodiy mexanizmlar muhim strategik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Davlat-xususiy sheriklik, soliq imtiyozlari, kreditlash, klaster yondashuvi va raqamlashtirish singari mexanizmlar nafaqat turizm infratuzilmasining jadal rivojlanishini ta'minlaydi, balki investitsion muhitni yaxshilash, tadbirkorlikni rag'batlantirish va hududiy resurslardan samarali foydalanishni kuchaytiradi.

Turizm sohasining rivojlanishi mamlakat yalpi ichki mahsulotining o'sishiga olib keladi va daromadlarning ko'payishiga ham bevosita hissa qo'shadi. Ichki turizm imkoniyatlarini yanada kengaytirish, transport logistikasidagi mavjud muammolarni hal etish, shuningdek, sohaga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-102-son Farmoni qabul qilindi<sup>22</sup>.

Turizm infratuzilmasi turistik yo'nalishlarning haddan tashqari yuklanishi bilan ortiqcha bosim ostida qolishi mumkin. Overturizm – bu turistik yo'nalishlarning haddan tashqari yuklanishi natijasida mahalliy aholi hayoti va tabiiy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan hodisadir. U turistlar sonining keskin ortishi bilan bog'liq bo'lib, resurslar yetishmovchiligi va infratuzilmaning ortiqcha zo'riqishiga olib keladi. Overturizm holatida turistlar oqimining nazoratsiz ortishi natijasida mahalliy resurslar va xizmatlar tizimining izdan chiqishiga olib keladi. Natijada, hududning barqaror iqtisodiy rivojlanishi xavf ostida qoladi.

Quyidagi jadvalda asosan overturizmning asosiy innovatsion ahamiyati keltirilgan

<sup>21</sup> Muallif ishlanmasi

